



UDK:811.112.28113

Zilola XALILOVA,
Navoiy davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: zilola.khalilova@inbox.ru

NavDU dotsenti, PhD G.Pirmanova taqrizi asosida

FRAZEMALAR NEMIS VA O'ZBEK TILI METOD VA YONDASHUVLARI TAHLILIDA

Annotatsiya

Mazkur ishda nemis va o'zbek tillaridagi frazeologik birliklarning tuzilishi, ma'nosi va qo'llanilish xususiyatlari solishtirma tahlil asosida o'rganilgan. Har ikkala tildagi frazeologizmlar milliy madaniyat, urf-odat, tarixiy tafakkur va xalq mentalitetini aks ettiruvchi muhim til birligi sifatida qaratiladi. Tadqiqotda frazeologik birliklarning semantik va grammatik xususiyatlari, ularning tarjima qilinishi va ekvivalentlik darajasi tahlil qilingan. Shuningdek, o'zbek va nemis tillaridagi o'xshash va farqli jihatlar ko'rsatilib, tarjima jarayonidagi muammolar va ularni hal etish yo'llari haqida fikr yuritilgan. Ish natijalari tilshunoslik, tarjimashunoslik va madaniyatlararo kommunikatsiya sohalarida amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: Frazeologiya, frazeologik birlik, nemis tili, o'zbek tili, tarjima, semantika, madaniyatlararo farqlar.

PHRASES IN THE ANALYSIS OF METHODS AND APPROACHES OF THE GERMAN AND UZBEK LANGUAGES

Annotation

In this work, the structure, meaning and usage characteristics of phraseological units in German and Uzbek languages are studied on the basis of comparative analysis. Phraseologisms in both languages are considered as an important language unit that reflects national culture, tradition, historical thinking and national mentality. In the study, semantic and grammatical features of phraseological units, their translation and level of equivalence were analyzed. Similar and different aspects of the Uzbek and German languages are also shown, problems in the translation process and ways to solve them are discussed. The results of the work are of practical importance in the fields of linguistics, translation studies and intercultural communication.

Key words: Phraseology, phraseological unit, German language, Uzbek language, translation, semantics, intercultural differences.

ФРАЗЫ В АНАЛИЗЕ МЕТОДОВ И ПОДХОДОВ НЕМЕЦКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА.

Аннотация

В данной работе на основе сравнительного анализа изучаются структура, значение и особенности употребления фразеологизмов немецкого и узбекского языков. Фразеологизмы в обоих языках рассматриваются как важная языковая единица, отражающая национальную культуру, традиции, историческое мышление и национальный менталитет. В ходе исследования были проанализированы семантические и грамматические особенности фразеологизмов, их перевод и уровень эквивалентности. Также показаны сходства и различия узбекского и немецкого языков, обсуждаются проблемы в процессе перевода и пути их решения. Результаты работы имеют практическое значение в области лингвистики, переводоведения и межкультурной коммуникации.

Ключевые слова: Фразеология, фразеологизм, немецкий язык, узбекский язык, перевод, семантика, межкультурные различия.

Kirish. Til – yozma va og'zaki muloqotning muhim vositasi bo'lib, har bir kishi o'z fikrini boshqalarga tushuntirish uchun har kuni kerak bo'ladigan so'zlar va iboralardan foydalanadi.

Ushbu tadqiqot frazeologiya va frazemalarning bir qancha hodisalarini o'rganib chiqdi. Tadqiqotning markaziy mavzulari frazemalarning xarakteristikasi sifatida qaratilgan semantik idiomatiklik, barqarorlik va polileksiklik edi. Tadqiqotning maqsadi G.de.Bruening „Tristan va Izolda“ asaridagi frazemalarning xususiyatlari qanday tushunilgan va tasvirlanganligini o'rganish va bu xususiyatlar bo'yicha davrlar oralig'idagi inson nutqi va dunyoqarashi o'rtasida qanday farqlar, o'zgarishlar yoki o'xshashliklar mavjudligini aniqlash edi.

1. das Leben verlieren-umidi uzilmoq
2. die Augen hängen- ko'z uzolmaslik
3. Die Ehre verlieren- obro'-e'tiborni yo'qotmoq
4. Das Leben verlieren – jondan judo bo'lmoq
5. die Forderung zurücknehmen- gaplarni qaytarib olmoq;

6. Die Lüge enden mit Schande - yol'g'onning misi chiqmoq

7. Messing an Stelle Goldes nehmen- oltin o'rinda mis olmoq

8. Wort halten- va'dasi ustidan chiqmoq, (ustiga) turmoq

9. Die Augen nicht lassen- ko'zdan qochirmaslik, ko'z quloq bo'lmoq

10. Aus dem Munde fließen Honig- tillaridan shakar – bol tommoq

Til ham, tilshunoslik ham vaqt o'tishi bilan rivojlanib boradi va natijada, masalan, ilgari qo'llanilgan atamalar eskirgan va hozirgi tilga mos kelmaydi deb taxmin qilish mumkin. Shuning uchun tadqiqotchilar har doim terminologiyani hozirgi zamonga mos kelishi uchun yangilab boradilar.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Frazema lingvistik birlik sifatida frazeologik birlik yoki frazemaning ta'rifi ko'plab tilshunos olimlar tomonidan tushuntirilgan.

Til shunchaki fikrni ifodalash vositasi emas, til va so'zlashuvchidan ilgari mavjud jarayon bo'lib, birinchi navbatda, biz ijtimoiy harakatlarni amalga oshiradigan madaniyatning tashuvchisidir.[3] Levandovski o'zining "Lingvistik lug'at"ida frazeologizmlarning ayrim jihatlarini eslatib o'tadi. Uning fikricha, frazema "qo'zg'almas yoki turuvchi so'z birikmasi" va shuning uchun ham "formulali yoki idiomatik ibora"dir. Uning fikricha, bir necha so'zlardan tashkil topgan, lekin birgalikda umumiy ma'noga ega bo'lgan leksemalardir" [4]. Levandovski frazeologiya atamasini ham tilga olib, uni "sintaksis va leksikologiya o'rtasidagi tadqiqot sohasi", balki "frazeologizmlarni - turg'un yoki turg'un birliklar yoki formulali iboralar yoki tilning oldindan tuzilgan sxematiklarini o'rganish, tasniflash, taqsimlash, taqsimlash, o'zgartirish yordamida" izohlanganligini yozadi.[5]

Shu nuqtai nazardan, 5-nashrdagi frazeologizm o'rni da frazeologik birlikni frazema sifatida ko'rsatganini eslatib o'tish joiz, chunki oxirgi atama hatto xalqaro til foydalanuvchilari uchun ham qulayroqdir. Yana shuni tushuntirish kerakki, Burger so'zma-so'z va frazeologik ma'no atamalar ko'chma ma'nodan tashqari hozirgi zamon frazeologiyasi uchun to'g'ridan-to'g'ri majoziy ma'no atamalaridan ko'ra ko'proq mos keladi, deb hisoblashda davom etadi [1].

Iboralar kundalik turmush tarzimizda faol ishtirok etib, nutqimizni osonlashtiruvchi til qurilmasidir. Idiomalar har bir tilning ajralmas va muhim qismidir. Yangi tilni o'rganuvchi imkon qadar erta idiomalardan foydalanishni o'rganishi kerak. Aynan ular tilga jon kiritib, uni bezatadi. Manbalardan ko'rinadiki frazema inson nutq faoliyatining ajralmas qismidir. Iboralar xalqning eng muhim so'z boyligi hisoblanib asrlar davomida tildan tilga o'zgarishsiz, shu bilan birga o'zgargan holda qo'llanilib kelinadi.

Frazema inson o'y xayollari, turish-turmushi va madaniy yashash tarzi imkoniyatlarini belgilovchi til aspektidir.

Frazeologizmlar matnlarda yaratiladi va ularda qayta jonlanadi. Shu sababdan ko'rish mumkinki o'rganayotgan tilimiz uchun iborani muhimligi badiiy asarlarda, mamlakatshunoslik fanlarida, grammatik mashq va topshiriqlarda o'z o'rnini va ahamiyatida tilda takomillashadi.

Grammatikani o'zlashtirgan har bir kishi chet tilini o'zlashtirgan bo'ladi [7].

Kundalik muloqotni osonlashtiradigan va qo'llab-quvvatlaydigan iboralar nemis tilida muhim rol o'ynaydi [6]

Tahlil va natijalar:

Tahlillarni oladigan bo'lsak nemis tilidagi ibora ona tilimizda o'z ma'nosini tarjimada saqlagan holda qo'llanilib kelinmoqda.

Aus einer Mücke einen Elefanten machen –Pashshadan fil yasamoq;

Wie Hund und Katze leben-it-mushuk bo'lib yashamoq;

Große Augen machen –ko'zlarini katta qilmoq; hayron qolmoq,tanbeh bermok;

Von A bis Z- A dan Z gacha; boshidan oxirigacha;

Blau sein – sarhush bo'lmoq, holdan ketmoq;[8]

Bugungi kunga qadar chet tillarini o'rganish va frazeologizmlardan foydalanishning ko'plab usul va metodlari ishlab chiqilgan.

1. Tavsifiy metod (Deskriptiv)

Bu metod frazeologik birliklarning shakl va mazmunini tahlil qilishga asoslanadi.

Maqsad – frazeologik birlikni tuzilmasi, grammatik xususiyatlari va leksik tarkibi bilan birga tavsiflash.

Misol: "Ko'z-quloq bo'lmoq" iborasi analiz qilinadi – grammatik tuzilishi (fe'l), semantik jihatdan (e'tibor berish).

Semantik (ma'no) tahlil metodi

Bu metod frazeologik birliklarning ma'nosini o'rganadi.

So'zlarning to'g'ridan-to'g'ri va ko'chma ma'nodagi munosabatlarini ochib beradi.

Misol: "Oyoq-qo'li bog'liq" – bu iboraning bevosita ma'nosi va ko'chma ma'nosi (erkin harakat qila olmaydi, majburlikda).

Tarixiy-etimologik metod

Frazeologik birliklarning kelib chiqishini, tarixiy ildizlarini o'rganadi.

Idiomalarning qadimgi manbalarda qanday qo'llanilganini tahlil qiladi.

Misol: "To'rt tomoni qibla" iborasining diniy va tarixiy kontekstdagi kelib chiqishi tilda mavjuddir.

Struktur-semantik metod

Bu metod iboralarning tuzilmasi (strukturasi) va ma'nosini birgalikda tahlil qiladi.

Frazeologik birliklar qanday tuzilgan va qanday ma'no beradi – bu jihatlarni o'rganadi.

Masalan:

Ikki komponentli: "til chiqarmoq"

Uch komponentli: „og'zini ko'pirtirib gapirmoq“

5. Kontrastiv (qiyosiy) metod

Bu metod turli tillardagi frazeologik birliklarni solishtiradi.

O'zbek tilidagi iboralarni ingliz, rus yoki boshqa tillardagi ekvivalentlari bilan taqqoslaydi.

Misol:

O'zbek tilida: "Tilimga sig'madi" "so'zsiz qoldim", "aytishga til bormadi", "dildan o'ta olmadi".

Nemis tilida: „Ich finde keine Worte“.

Tilshunoslik va madaniyatshunoslik o'rtasidagi chegarada paydo bo'lgan xalq madaniyati o'rganilishida frazeologiyani o'rni va ahamiyati salmoqlidir.

Frazeologik bilim yoki qiziqish uch xil yondashuvni tarkiban rivojlantiradi:

metodlar va yondashuvlar;

mintaqaviy tadqiqotlar hayot tarzi;

mamlakat haqida ma'lumot;

Metodologik jihatdan grammatik tarjima usuli, faol chet tilni o'qitish bo'lib, unda og'zaki til muloqoti muhimdir.

klipp und klar;

im Nu;

ab und zu; [2]

Yuqorida ta'riflangan frazemalar grammatik struktur jihatdan almashtirib bo'lmaydigan grammatik xossani tashkil etadi. (zu und ab, klar und klipp, Nu im) teskari qo'llanilishi notog'ri moslashuvchanlikdir.

Xulosa va takliflar. Frazeologik birliklar – har qanday tilning boyligi, uning milliy va madaniy tafakkurining yorqin ifodasi hisoblanadi. Ular xalqning asrlar davomida shakllangan hayotiy tajribasi, dunyoqarashi va estetik didini aks ettiradi. Frazemalar o'zining barqarorligi, ko'chma ma'nosi va obrazli ifoda kuchi bilan boshqa leksik birliklardan ajralib turadi. Frazeologik birliklarni chuqur o'rganish nafaqat til boyligini oshirish, balki milliy ong va madaniyatni anglashga ham xizmat qiladi. Ayniqsa, ularni boshqa tillardagi ekvivalentlar bilan taqqoslash (kontrastiv tahlil) tarjima, til o'rgatish va tilshunoslik sohalarida muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy lingvistika frazeologiyani mustaqil fan sifatida o'rganib, uning turli metodlari – tavsifiy, semantik, tarixiy, qiyosiy va korpus tahliliga asoslangan metodlar orqali frazemalarning lug'aviy va uslubiy xususiyatlarini aniqlashga xizmat qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, frazeologik birliklar tilda emotsional ifoda, ta'sirchanlik va obrazlilikni ta'minlaydigan muhim vosita bo'lib, ularni o'rganish til madaniyatining ajralmas qismidir.

ADABIYOTLAR

1. Burger, Harald: Phraseologie. Eine Einführung am Beispiel des Deutschen. Berlin: Erich Schmidt Verlag.1998, Seite 13-15.
2. DUW- Deutsches Universalwörterbuch. 7., überarbeite und erweiterte Auflage. Hrsg. von der Dudenredaktion. Mannheim u. a.: Dudenverlag. 2011
3. Günthner S., Sprachwissenschaft .2023, Seite 347.
4. Lewandowski, Theodor: Linguistisches Wörterbuch. 5., überarbeitete Auflage. Heidelberg: Quelle & Meyer.1990, Seite 145-150
5. Lewandowski, Theodor: Linguistisches Wörterbuch. 5., überarbeitete Auflage. Heidelberg: Quelle & Meyer.1990, Seite-230-236
6. Gündoğdu Mehmet, Die Behandlung der Phraseologismen im Unterricht Deutach als Fremdsprache. 2007, Seite 10-13.
7. G.Neuner, H.Hunfeld, Methoden des fremdsprachlichen Deutschunterrichts eine Einführung. Langenscheidt, Berlin, 1993, Seite -19
8. Thomas Erika, Vorschlag für die Klassifizierung der Phraseologismen. Einige Probleme. In: Argumentum 10, 41–55. Abrufbar unter: argumentum.unideb.hu/2014-anyagok/thomase2.pdf [zitiert am 22.4.2016]. Universität Zürich.